

Mokhira S. JUMANIYAZOVA,
Lecturer of the «International Relations
and Social Sciences» Department,
International Islamic Academy of Uzbekistan.
A.Qadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan.
E-mail: moxirajumaniyazova@gmail.com

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2024-2/7

OILADA XOTIN-QIZLAR VA BOLALARGA QARSHI ZO‘RAVONLIKNI OLDINI OLISHDA ISLOM TA’LIMOTINING AHAMIYATI

THE IMPORTANCE OF ISLAMIC TEACHINGS IN PREVENTING VIOLENCE AGAINST WOMEN AND CHILDREN IN THE FAMILY

РОЛЬ УЧЕНИЙ ИСЛАМА В ПРЕДОТВРАЩЕНИИ НАСИЛИЯ В СЕМЬЕ ПРОТИВ ЖЕНЩИН И ДЕТЕЙ

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida ijtimoiy hayotimizga ijobiy yangiliklar bilan bir qatorda vayronkor g‘oyalar ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu kabi g‘oyalarga: «Ommaviy madaniyat», globallashuvning salbiy oqibatlari, virtual qullik, oilaviy qadriyatlarining yo‘qolib borishi, oilaviy ajrimlarning keskin oshib ketishi hamda xotin-qizlar va bolalarga qarshi amalga oshirilayotgan jismoniy va jinsiy zo‘ravonliklarning avj olib borayotganligini keltirish mumkin. Ushbu muammolarning jadallashuviga asosiy sabab nima ekanligini tahlil etish va ular ta’sirida yuzaga kelayotgan ijtimoiy oqibatlarni o‘rganish mamlakatimizdagi har bir ilm sohiblariga ulkan mas’uliyat yuklashi aniq. Negaki, bunday jarayonlarga befarq munosabatda bo‘lish, kelajakda millatning o‘zligini yo‘qotishiga, qadriyatlarimizni oyoqosti qilinishiga, milliy o‘zlikni yo‘q bo‘lib ketish xavfini kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shunday ekan, masalaga atroflicha e’tibor qaratish, uning sababi va oqibatini o‘rganish muhimdir. Mazkur ilmiy tadqiqotda ham asosan shu kabi masalalarga e’tibor qaratiladi. Xususan, yurtimizda ijtimoiy sohani izchillashtirish maqsadida turli dasturlar, qator loyihalar ishlab chiqilmoqda, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ularning asosiy maqsadi ham ijtimoiy masalalarni o‘rganish va ijobiy

natijaga erishishdir. Ijtimoiy masalalar negiziga oilaviy munosabatlar va unda er-xotin va farzandlar munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari, oilaviy nizolarni bartaraf etishning ijtimoiy-nazariy asoslari kabilarni ham keltirish mumkin. Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida jamiyat va davlat muhofazasida (O‘zb. Konstitutsiyasi, 2023:8) ekanligi tamoyili O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 76-moddasida ham qat’iy belgilangan. Shuningdek, mamlakatimizning Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchilardan bo‘lib Birlashgan Millatlar tashkiloti tomonidan 1979-yilda qabul qilingan «Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida»gi Konvensiyasiga qo‘shilishi masalaga e’tiborning naqadar muhimligini aks ettiradi. Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bu boradi quyidagi nutqlari ham fikrimiz isboti deyish mumkin: «... oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda sog‘lom muhitni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasi, tinch-osuda hayotimizni, muqaddas dinimiz pokligini asrash vazifasi bugungi kunda ulkan ahamiyat kasb etmoqda» («Xalq so‘zi» gazetasi, 2017:119-son).

ASOSIY QISM

«Oila – er, xotin va farzandlardan iborat. Ya’ni oila bir shaxs boshchiligida bir uyda yashovchilardir», - deydi Abdurauf Fitrat. Shaxs, oila va oilaviy munosabatlar masalasi bugungi kunda o‘zining tarixiy, madaniy, milliy va umumbashariy qadriyatlariga ega O‘zbekiston davlatining ravnaqi uchun katta ahamiyatga. Umuman olganda shaxsning shakllanishida, ma’naviyatning tarkib topishi va rivojlanishida oilaning o‘rni beqiyosdir, jamiyatning asosiy guruhi hisoblangan oila, jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda rivojlanib boradi. Uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, mazmuni, oilaviy munosabatlarning o‘ziga xosligi mavjud ijtimoiy tuzumdagi mafkuraviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-tarixiy, madaniy shart-sharoitlar bilan belgilanadi.

Oila – nikohga va yaqin qarindoshlikka asoslangan axloqiy mas’uliyat, o‘zaro hurmat, tushunish va mehr-muhabbat umumiyliги bilan bog‘langan kichik ijtimoiy guruh (Akramova F.A. 2019:111). Shu o‘rinda aytish joizki, oila tushunchasi bevosita jamiyatning eng muhim va asosiy bo‘g‘ini ekanligi – uning ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ta’minlovchi mexanizm ham hisoblanadi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada jahonda, xususan mamlakatimizda bugungi kunda dolzarb bo'lib borayotgan oila va jamiyatdagi xotin-qizlar va bolalarga qarshi qaratilgan turli shakldagi zo'ravonliklar va tazyiqlarning milliy ma'naviyatimizga salbiy ta'siri, bu boradagi davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar haqida to'xtalangan. Xususan, islom dinida oilada xotin-qizlarga ko'rsatilishi lozim bo'lgan e'tibor, farzand tarbiyasida nimalarga ahamiyat berish zarurligi mazmunidagi oyati karima va hadisi shariflarning mohiyati to'g'risida atroflicha tahlillar berilgan. Tadqiqot ishida mavzuga bog'liq bir necha adabiyotlardan keng foydalanilgan. Maqolaning asosiy maqsadi bu – oilada xotin-qizlar va bolalarga qarshi zo'ravonliklarni oldini olishda islom dinining ahamiyati va undagi nasihat va hikmatlarning o'rniga keng e'tibor qaratishdir. Shunday ekan, xotin-qizlar va bolalarga qarshi qaratilgan zo'ravonliklarni oldini olishda diniy qadriyatlarimizdagi o'ziga xosliklarni tushuntirish eng maqbul yechimlardan biridir. Ayniqsa, uni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etish yana ham chuqur mazmunini anglashga yordam beradi, tadqiqot ishida ham aynan shularga e'tibor qaratilgan. Xususan, Qur'oni karim va hadislarida kelgan nasihat mazmunidagi oyat va hikmatlar orqali islomda ayolga berilgan e'tiborning yuksakligi va farzand tarbiyasida mehr-shafqatli bo'lish insoniy fazilatlar sirasiga kiritilganligi e'tiborlidir. Bundan tashqari, mavzuga doir ilmiy tushunchalarni qisqacha tahliliga ham e'tibor berilgan.

Kalit so'zlar: Oilaviy munosabatlar, xotin-qizlar va bolalarga qarshi jismoniy zo'ravonlik, milliy va diniy qadriyatlar, Islom ma'rifati, farzand tarbiyasi, Axloqiy qarashlar, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro hujjatlar.

Abstract. This article focuses on the negative impact of various forms of violence and oppression against women and children in the family and society, which are becoming more relevant in the world, especially in our country, on our national spirituality, and the reforms implemented by our country in this regard. In particular, a detailed analysis of the meaning of the verses and hadiths about the importance of women in the family, what should be given importance in the upbringing of children in the religion of Islam, is given. Several literatures related to the topic were widely used in the research work. The main purpose of the article is to draw attention to the importance of Islam and its advice and wisdom in preventing violence against women and children in the family. Therefore, explaining the peculiarities of our religious values is one of the best solutions to prevent violence against women and children. Especially, analyzing it from a scientific and theoretical point of view will help to understand its deeper content, and this is what the research focuses on. In particular, it is noteworthy that through the verses and wisdoms of the Holy Qur'an and Hadiths, the high attention paid to women and kindness in raising children are among the human qualities. This is an important basis for our ability to resist various foreign ideas. In addition, attention is also paid to a brief analysis of scientific concepts related to the topic. It is aimed to increase the scientific weight of the topic. The above issues are researched in the scientific article.

Keywords: Family relations, physical violence against women and children, national and religious values, Islamic enlightenment, child upbringing, moral views, regulatory and legal documents, international documents.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы, приобретающие все большую актуальность в мире и в нашей стране, в частности, касательно негативного воздействия на национальную духовность различных форм насилия и гнета в семье и обществе, направленных против женщин и детей, а также касательно реформ, осуществляемых государством в данном направлении. В частности, представлен всесторонний анализ содержания аятов Корана и хадисов, призывающих к уважению в отношении женщин в семье, и разъясняющих, чему необходимо уделять внимание при воспитании детей согласно исламу. В исследовании широко использовался ряд источников по данной теме. Главная цель статьи заключается в том, чтобы привлечь широкое общественное внимание к роли религии ислам в предотвращении насилия против женщин и детей в семье, а также роли религиозных наставлений и поучений в этом отношении. Таким образом, при профилактике насилия против женщин и детей одним из наиболее предпочтительных решений является разъяснение особенностей религиозных ценностей. В особенности, научно-теоретический анализ помогает более глубоко понять их суть и содержание, и в исследовательской работе основное внимание было сосредоточено именно на этом. В частности, с помощью аятов Корана и поучительных хадисов подчеркивается высокое положение женщины в исламе, а доброта и милосердие при воспитании детей включены в человеческие добродетели. Кроме того, также уделяется внимание краткому анализу научных концепций, связанных с данной темой.

Ключевые слова: Семейные отношения, физическое насилие в отношении женщин и детей, национальные и религиозные ценности, исламское просвещение, воспитание детей, нравственные взгляды, нормативно-правовые документы, международные документы.

Bilamizki, O'zbekistonda oila masalalari davlat siyosati darajasida qaraluvchi masala hisoblanadi. Xususan, 2018-yilning 2-fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-5325-sonli Farmonida boy madaniy tarixiy meros va an'anaviy oilaviy qadriyatlar oilani mustahkamlashga xizmat qilishi, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-birlariga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurishdan, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iborat ekanligi belgilab berilgan. Farmonda zamonaviy namunali oilalarni shakllantirish, uning ma'naviy-axloqiy negizlari va an'anaviy oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash bo'yicha maqsadli ishlar olib borish zarurligi ta'kidlangan (Akramova F.A. 2019:3).

Ayniqsa, oilalarda xotin-qizlar o'rnini ta'minlash va yanada mustahkamlash, bu borada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli nizoli holatlarni oldini olish maqsadida mamlakatimizda tegishli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, xotin-qizlar va bolalarga nisbatan zo'ravonlik - majburlash, jismoniy kuch ishlatish yoki doimiy bosim o'tkazish kabi xatti-harakatlar majmui deb tushunilishi mumkin. Ushbu muammo barcha jamiyatlarida ham uchraydi hamda ushbu masalaga ta'lim yoki nazorat elementlarini o'z ichiga olgan axloqiy, diniy me'yorlarning bir qismi sifatida qarab kelingan. Nizoli holatlarni baholash shu hududda yashovchi insonlarning ijtimoiy madaniyatiga, diniy-milliy qadriyatlariga ko'ra baholanadi. Shunga ko'ra nizolar va turli shakldagi zo'ravonliklarni oldini olish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammoga qarshi kurashishda nafaqat mahalliy balki butun jahon hamjamiyatining ishtiroki kengayib bormoqda. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasi 2000-yilda har yili 25-noyabrni Xalqaro xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonliklarga barham berish kuni sifatida nishonlash to'g'risida rezolyutsiya»(BMT hujjatlari. 1992:84) qabul qilgan. An'anaga binoan har yili 25-noyabr kuni «Gender zo'ravonliklariga qarshi faol 16 kun» deb nomlangan kampaniyaga start berilib, bu kampaniya Xalqaro inson huquqlari kuni nishonlanadigan 10-dekabrda yakunlanadi. Shu o'rinda aytish mumkinki, oilalarda xotin-qizlarga va bolalarga qarshi qaratilgan turli tazyiq

va zo'ravonliklar har bir mamlakatning ijtimoiy nufuziga salbiy ta'sir o'tkazadi. Negaki, oila va uning a'zolarining ham ma'nan hamda jismonan yetukligi jamiyatning asosiy mustahkamligini ta'minlab beruvchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Ma'lumki, oila hayotning adabiyligini ta'minlaydi, vorislar ota-ona boshlagan ishni davom etishini amalga oshiruvchi muqaddas dargohdir. Bu dargoh millatning urf-odatlarini saqlashga ko'maklashuvchi, kelajakda farzandlar komil inson bo'lib yetishishiga ta'sir ko'rsatuvchi tarbiya o'chog'idir. Shu nuqtai nazardan, oilaviy munosabatlarni asrab avaylashga sharqda, xususan mamlakatimizda alohida ahamiyat beriladi. Uzoq tarixiy ildizlariga ega xalqimiz bugungi kunda mustaqil davlatchilik asoslarini mustahkamlar ekan, bu o'rinda fuqarolik jamiyatining asosiy o'zagi hisoblangan oilaning roli, shubhasiz, juda katta ekanligini aytib o'tish lozim. Millatimizning oilaviy munosabatlari tarixini o'rganish va o'tgan davr silsilalari asosida uning huquqiy munosabatlari shakllanishi borasida alohida fikr yuritish zarurati tadqiqotchilar uchun o'ziga xos burch sanaladi. Shuning uchun ham, hozirda oila va oilaviy rishtalarni mustahkamlash omillarini tadqiq etish davr talabadir. Yurtimizda azal-azaldan oilani mustahkamlash, onalik ba bolalikni muhofaza etish, oilaviy nizolarni oldini olish masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Oilada har bir a'zosining o'zni, darajasi nuqtai nazaridan huquq va erkinliklari, majburiyatlari ijobiy xarakter kasb etgandir, xususan ayollarning roli o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Oilaning muhim ahamiyatga ega bo'lgan vazifasi tarbiyalashdir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyasi oilada shakllanadi. Oiladagi tarbiya orqali shaxsga ma'lum bir siyosiy-g'oyaviy dunyoqarash, axloqiy me'yorlar va xulq namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi barkamol shaxsning tarbiyalanishida muhim o'rin tutadigan asosiy maskanlaridan biridir. Shuning uchun ham oilada nosog'lom muhit shakllangan taqdirda, bu albatta oilada voyaga yetayotgan farzand uchun ikki karra og'ir yuk hisoblanadi. Shunday ekan, oilaviy nizolarni oldini olish, ayollar va bolalar bilan bog'liq vaziyatni yanada barqarorlashtirish maqsadida dinimizdagi ko'rsatmalarga ham quloq tutish turli xildagi nizolarni oldini olishda qo'l kelishi mumkin.

Oila huquqi normalari islom huquqining, avvalo Qur'oni Karim, sunna va boshqa manbalarda ham o'z aksini topgan. Mazkur manbalarda Oila va u bilan bog'liq masalalarga doir ko'plab asoslar berilgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etayotgan asosan yosh oilalar o'rtasida tobora ko'payib borayotgan oilaviy ajrimlarning oldini olishda asrlar davomida oilaviy munosabatlarni tartibga solib kelgan islom huquqi normalarini chuqur, to'g'ri, xolisona o'rganish orqali yechimni topish lozim bo'lgan masalalarda ulardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zero, islom ta'limoti Qur'oni karimda zikr qilingan, dilning taskin topishi, bir-biriga ko'ngil qo'yib, mehr-shafqatli bo'lish va solih farzandlar tarbiyalashdek oliyjanob g'oyalar ro'yobga chiqishi uchun nikoh shartnomasi – oilaning davomli bo'lishini xohlaydi. Islom huquqida nikoh shartnomasi oilani buzishni ravo ko'rmaydi. «Agar ular (er-xotin)ning oralari buzilib ketishidan qo'rqsangiz, er oilasidan bir hakam, xotin oilasidan bir hakam yuborsangiz. Agar (er-xotin) islohni xohlasalar, Alloh o'rtalarini muvofiqlashtirgay» («Niso» surasi, Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimas. 2017:77), - deyiladi Qur'oni karimda. Islom huquqida oilaviy hayotni davom ettirish, unda ko'zda tutilgan maqsadlarni ro'yobga chiqarish mumkin bo'lmay qolgandagina so'nggi chora sifatida ajrashishga ruxsat beriladi. Bu borada Payg'ambar (s.a.v)dan keltirilgan quyidagi hadisi shariflar mashhurdir: «Uylaninglar, taloq qilmanglar, taloq so'zidan Rahmonning arshi ham larzaga keladi», «Halol va ruxsat etilgan narsalar ichida tangiriga xush kelmaydigani taloqdir» (Hikmatullayev H., Mansur A., 1990:12).

Har bir inson muqaddas nikoh ahdi orqali oilaga birikar ekan, oilada er-xotin tinch-totuv, ahil-inoq ravishda, baxt nashidasini surib yashashni niyat qiladi. Va albatta buning uchun oilada erkak ham ayol ham birdek harakat qilmog'i lozim.

«Oiladagi turli nizolarni oldini olishlik birinchi galda tomonlar bir-birlarining haq-huquqlariga ne chog'lik rioya etishlari, o'z majburiyatlari doirasidagi amallari bilan asoslanadi. Shu asosda er va xotinning huquq va majburiyatlari uch xil bo'ladi: mushtarak huquqlar, urning xotindagi huquqlari, xotinning erdagi huquqlari.

Birinchi holatda, er-xotinning har ikkisiga ham birdek taalluqli bo'lgan – o'zaro ishonch, sevgi, hurmat, oilaga mas'uliyat, farzandlar tarbiyasiga birdek javobgarlik masalalari tushuniladi. Ikkinchi holatda ya'ni urning huquqlari va majburiyatlari

masalasida urning oila boshlig'i, mas'ul kishisi, oila boshqaruvchisi, moliyaviy taraflariga javobgar bo'lgan shaxs ekanligini tushunamiz. Xotinning erdagi huquq va majburiyatlari esa erga itoat, oilaning ma'naviy va iqtisodiy asoslarini mohirlik va tejamkorlik bilan tartib asosida boshqarish. Ushbu tamoyillar albatta oila hayotining axloq negizlarini mustahkamlashga qaratilgan. Nikoh tuzilganidan boshlab ular er-xotin o'rtasida qator shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlar vujudga keladi. Shaxsiy huquqlar o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish asosida qurishni hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligini taqozo etadi. Oilada er-xotinning mulkiy huquqlari uch holatda: Mahr, Nafaqa (ta'minot), Meros namoyon bo'ladi. Biz ushbu masalalarni oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlarga oid bo'limda batafsil tahlil qildik. Aytish joizki, har uchala mulkiy institutlarning joriy qilinishdan ko'zlangan maqsad nikoh munosabatining davomli bo'lishiga qaratilgan.

Oila atalmish muqaddas oshyonda er va xotin bir-birlarining odatlarini, ruhiy kechinmalarida va kayfiyatlarida bo'ladigan o'zgarishlarni yaxshi tushunib yetishlari juda muhim sanaladi. Shu asosda ular turli tushunmovchiliklarning oldini olish maqsadida bir-birlarini xafa qiladigan narsalardan yiroq bo'lishlari, xursand qiladigan narsalarga yaqin bo'lishga harakat qilishlari lozim. Hadisi sharifga ko'ra, Oisha (r.a): «Rasululloh (s.a.v.) menga: «Albatta, sen mendan qachon rozi bo'lsang ham bilaman. Mendan qachon achchiqlangan bo'lsang, «Muhammadning Parvardigori ila qasamki, unday emas! deysan. Qachon achchiqlangan bo'lsang, «Ibrohimning Parvardigori ila qasamki, unday emas! deysan», dedilar. (Imom Muslim rivoyati). Bu hadisda tushuniladigan narsa shuki, ikki tarafning bir-birlarini anglashlari, ruhiyatlaridagi o'zgarishlarni sezishlari bayon etilmoqda. Rafiqa o'laroq Oisha (r.a) o'zlaridagi o'zgarishlarni katta bir madaniyat bilan ifoda etyaptilar. Nizoga olib keladigan zarda, zaharxandalik, yig'lash, gapirmay qo'yish, janjal ko'tarish bilan emas. Bir tarafning xafaligi janjalga, nizoga olib kelmagan, har ikki taraf kerakli chorani ko'rgan va kelishmovchilikning oldi olingan» (Yusupova N.J., 2022:123).

«Islomda oilaga uning er-xotin, ota-ona va bolalardan iboratligi asosida qaraladi. Oiladagi muomalalar o'zaro hamkorlik, mehr-muhabbat asosida o'rnatiladi va olib boriladi. Bunda, avvalo, insoniylik odob va axloqlariga hamda ijtimoiy vazifani o'tashga amal qilishga e'tibor beriladi.

Umuminsoniy narsalarda erkak va ayolga birdek qaraladi. Yaratilishi, jismoniy va nafsoniy tuzilishiga oid narsalarda esa, erkakka o'ziga xos, ayolga o'ziga xos muomala qilinadi.

1. Umumoilaviy ishlarda mas'uliyat tengligi.

Oilada erkak rahbar bo'lsa ham, ayol oilani boshqarish va uning mustahkamligini ta'minlashda barobar javobgarlikni ko'taradi. Ular bu borada maslahatlashib, sho'ro asosida ish olib boradilar.

Ibn Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

«Nabiy (s.a.v.): «Ogoh bo'linglar. Barchangiz rahbarsizlar va o'z qo'l ostidagilaringizdan so'ralursizlar. Odamlar ustidan turgan boshliq rahbardir va u o'z qo'l ostidagidan so'ralur. Er kishi o'z ahli baytiga rahbardir va u o'z qo'l ostidagidan so'ralur. Ayol kishi eri va erining o'g'li uyida rahbardir va u o'z qo'l ostidagidan so'ralur» – dedilar». Beshovlari rivoyat qilganlar. Ushbu hadisi sharifdan oila borasida er ham, ayol ham mas'ul ekani ko'rinib turibdi.

«Er kishi o'z ahli baytiga rahbardir va u o'z qo'l ostidagidan so'ralur».

Islomda oila boshlig'i bo'lish ulkan sharaf hisoblanishi bilan bir vaqtda, buyuk mas'uliyat hamdir. Erkak kishi o'z oilasidagi barcha ahli baytga mas'uldir. Mas'ul bo'lganda ham, moddiy-ma'naviy, ruhiy-tarbiyaviy, dunyoviy-uxroviy – hamma-hamma tomonlama mas'uldir. U o'z ahli baytini: ayoli, bola-chaqasini to'ydirib, kiydirib, uy-joy bilan ta'minlash, ta'lim-tarbiyali qilish, axloqli-odobli qilish, Allohning yo'lida yuradigan inson qilish, tinch-omonliklarini ta'minlash va shunga o'xshash barcha ishlarda mas'uldir. «Ayol kishi erining uyida rahbardir va u o'z qo'l ostidagidan so'ralur». Islomda oila bekaligi buyuk sharaf bo'lishi bilan birga, ulkan mas'uliyat hamdir. Oilaning bekasi bo'lganidan keyin, uning ichki ishlarining hammasi o'sha bekaning qo'lida, ixtiyorida bo'ladi. Oilaning iqtisodi bekaning tejamkorligiga, o'ziga ishonib topshirilgan tirikchilik vositalariga xiyonat qilmasligiga va isrof qilmasligiga bog'liq bo'ladi. Oilaning iqtisodi bekaning tejamkorligiga, o'ziga ishonib topshirilgan tirikchilik vositalariga xiyonat qilmasligiga va isrof qilmasligiga bog'liq bo'ladi. Eng ulkan mas'uliyatlardan biri esa, farzandni tug'ib, chiroyli boqish, yetuk inson qilib tarbiyalashdir. Bu mas'uliyatni musulima ayollar doimo sharaf bilan ado etib kelganlar. Xulosa qilib aytilganda, musulima ayolning oiladagi mas'uliyati beqiyosdir. Erning ishlari muvaffaqiyatli bo'lishida ayolning tutadigan o'rnini hech kim inkor qila olmaydi. «Erni

er qiladigan ham xotin, yer qiladigan ham xotin» deb bejiz aytilmagan. Gap har bir musulima ayol o'z mas'uliyatini to'la tushunib yetishida qolgan, xolos.

2. Ajrashishdagi tenglik.

Islom oilani buzishda taloq haqqini erkak kishiga bergan. Chunki erkak kishi oila rahbari hisoblanadi. Oilaning obro'si uning obro'si bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Shuning uchun erkak kishi oilani buzishdan oldin ko'p o'ylaydi. Bolalar ham otaning nomida bo'ladilar, bu omil ham erkakni iloji boricha oilani saqlab qolishga undaydi. Oila qurish uchun barcha harakatlarni va sarf-xarajatlarni ham erkak qiladi. Xotinga mahr beradi, uy-joy hozirlaydi, to'y qiladi va hokazo. Ammo, bu gap, ayol kishi istasa-istamasa, oilada yashashi majburiy, uning ajrashishga haqqi yo'q, degani emas. Islomda ayol kishi ham ajrashish huquqiga ega. U bu ishni «Xulu» yo'li bilan qiladi. «Xulu» so'zi lug'atda, ko'proq, «kiyim yechish» ma'nosida ishlatiladi. Shariatda esa, xotin kishining arz qilish orqali eri bilan ajrashish huquqiga ega.

3. Itoatdagi tenglik

Islom shariatidagi oilalar itoatdagi tenglikning mohiyatini to'liq anglab yetish uchun bu masala boshqalarda qanday yo'lga qo'yilganini bilib olishimiz zarur. Yevropada er-xotin orasidagi itoat qulchilikdan farqli bo'lmagan. Ulardagi xotinning eriga itoat qilishi savdo shartnomasiga o'xshash bo'lgan. Er o'z xotinini sotishi, sotib olishi, ijaraga berishi yoki vaqtinchalikka berib turishi joriy odat bo'lgan. Fransiya inqilobidan keyingina, 1791-yili chiqarilgan qonun bo'yicha, bu qoida bekor qilindi. Yangi qonunning 213-moddasiga binoan, xotin eriga itoat qilishi va u turgan joyda turishi lozim, deyildi. Mazkur qonunning 1388-moddasiga binoan, itoat vojibligiga xilof bo'lgan har qanday shartni bekor, deyildi. 1804 yildagi «Fransiya grajdanlik kodeksi» chiqquncha, er xato qilgan xotinini qamash va xizmatkordek muomala qilish huquqiga ega edi.

4. Merosxo'rlikdagi tenglik.

Dunyoda ayol kishi meros olish haqida o'ylashi ham mumkin bo'lmagan davrda, balki, ba'zi joylarda ayol «meros» sifatida taqsimlanayotgan bir paytda Qur'oni karim merosxo'rlikda ayol va erkak orasidagi tenglikni e'lon qildi. Alloh taolo «Niso» surasida shunday deb marhamat qildi: «Erkaklar uchun ota-ona va qarindoshlar qoldirgan narsadan nasiba bor. Ayollar uchun ham ota-ona va qarindoshlar qoldirgan narsadan nasiba bor. Ozidan ham, ko'pidan ham. Farz qilingan nasiba o'laroq» (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2016:181).

Darhaqiqat, islom dinida ayol va erkakning nimalarda teng haqdor ekani hamda ularning munosabatlardagi o'ziga xosliklar atroflicha bayon etilgan. Shuningdek, dinimizda oilaviy munosabatlarni hamjihatlikda olib borish, har ikki tarafning huquqlari va majburiyatlari masalasiga keng yondashilgan. Buning asosiy sababi ham oilalarning mustahkamligini ta'minlash, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyat va nizolarni bartaraf etishdir.

Umuman, bugungi kunda yuzaga kelayotgan oilaviy zo'ravonlik deganda nimani tushunishimiz kerak, uning mazmuni nimalarda namoyon bo'ladi. «Oilaviy zo'ravonlik, shuningdek, oilaviy yoki maishiy zo'ravonlik – bu bir yaqin juftining yoki qarindoshning asosan oila ichida boshqasiga nisbatan takrorlanuvchan zo'ravonligidir. U jismoniy, psixologik, jinsiy va iqtisodiy zo'ravonlik ko'rinishlarida ifodalanishi mumkin. Masalan, rossiyalik tadqiqotchi A.S.Pashenko «oilaviy zo'ravonlik» atamasini qo'llaganida, uni «oila a'zolarini o'zi istamagan harakatlarni bajarishga majburlash uchun qo'rqitish yoki jazolash, xafa qilish, jismoniy tazyiq o'tkazish (cheklovlar o'rnatish) maqsadida jismoniy kuch yoki ruhiy bosim qo'llagan holda sodir etiladigan noqonuniy harakatlar», deb izohlaydi (Pashenko A.S., 2005:46-48). Shunday ekan, oilalarda sodir bo'layotgan turli nizoli vaziyatlarda, avvalo, taraflarning nimaga majbur etilayotganini, hamda uning qanday oqibatlarga olib kelishi haqida tafakkur qilish lozim bo'ladi.

Albatta, har bir oilada er-xotin tinch-totuv, ahilinoq ravishda, baxt nashidasini surib yashashi ayni muddaodir. Buning uchun hamma harakat qiladi. Ammo, jon bor joyda janjal bor, deganlaridek, kishilar istamasalar ham, oila a'zolari – er-xotin orasida er-xotin orasida tushunmovchiliklar, kelishmovchiliklar va urush-janjallar chiqib turishi bor. Ushbu holatni to'g'ri hal qilish ham oilaning va uning a'zolarining saodatiga xizmat qiladigan muhim omillardan biridir. Bu masalada ikki taraf ham bir-birini yaxshi tushunishi, ayol erining, er ayolining rioyasini qilishi lozim. Ikkovlari bir-birlarining odatlarini, nimadan xafa va nimadan xursand bo'lishlarini, ruhiy kechinmalarida va kayfiyatlarida bo'ladigan o'zgarishlarni yaxshi tushunib yetishlari zarur. So'ngra bir-birlarini xafa qiladigan narsalardan yiroq bo'lib, xursand qiladigan narsalarga yaqin bo'lishga harakat qilishlari kerak. Rasululloh (s.a.v.) ning oilalarida ana shu holat hukm surgan.

Islom dinida ham oilaviy nizolarni bartaraf etish va unga yo'l qo'ymaslik haqida muqaddas manba Qur'oni Karim va hadislarda ham juda ko'plab nasihat va o'git mazmunidagi hukmlar kelgan. Xususan, «Qur'oni Karim, «Niso» surasi 128-oyatiga ko'ra, «Agar ayol kishi o'z eridan zug'um va yuz o'girish sodir bo'lishidan qo'rqa, ikkovlari o'zaro sulhga kelishishlarida ularga gunoh yo'q. Sulh yaxshidir. Nafslarga qizg'anish o'rnatirilgandir. Agar yaxshilik va taqvo qilsangiz, albatta, Alloh nima qilayotganingizdan xabardordir» (Abdulaziz Mansur, 2001:80). Bu oyatga quyidagi manbada atroflicha sharh berilgan: «Bu oyatdan nimani tushunmoq kerak? Bu yerda erning asosiy mulkiy, shaxsiy majburiyatlari borasidagi bo'yin tovlash yoki mas'uliyatsizlikni tushunmaslik lozim. Chunki, u majburiyatlarni bajarmaganlik holati uchun belgilangan tartibda chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Mazkur holatda masala umuman boshqa. Ya'ni turmush jarayonida, turli jiddiy sabablarga ko'ra, er-xotiniga nisbatan nafrat tuyg'usini his etishi natijasida er xotinidan ajralmoqchi yoki undan yuz o'girib, taloq ham qilmay, muomala ham qilmay, tashlab qo'yadi. Bunday vaziyatda xotin eridan ajrashni xohlamasa, yarashish tadbirini qiladi. Erining nafratiga yoki yuz o'zgarishiga sabab bo'lgan ishlarni bartaraf etish bilan uni rozi qilib, ajralmay qolishga harakat qiladi. Hatto mahrning hammasini yoki bir qismini erining foydasiga voz kechib bo'lsa ham, murosa bilan sulhga erishishi mumkin. Zero, oyatda: «Sulh yaxshidir», deyilmoqda. Shuningdek, «Agar yaxshilik va taqvo qilsangiz, albatta, Alloh nima qilayotganingizdan xabardordir», deyilmoqda. Ya'ni bu yerda xotinidan nafratlanib, uni taloq qilmoqchi bo'lgan yoki yuz o'girib, tek tashlab qo'ymoqchi bo'lgan erkak o'sha xotinning ajrashish istagi yo'qligi bilgach, unga yaxshilik qilib, taqvo yuzasidan o'zi bilan qolsa, yaxshi bo'lishi, Alloh unga ajr va savob berishi haqida uqtirilmoqda. Anglashilganidek, har qanday holatda ham oilani saqlab qolishga targ'ib qilinadi» (Shohmurodzoda M., Karomatulloh F., 2018:127). Darhaqiqat, islomda oiladagi har bir kichik masaladan tortib to yirik masalalargacha kerakli javob va xulosalar yetarli. Xususan, oilada farzand tarbiyasi masalasi ham shular jumlasidandir. «Ota-ona farzandlar bilan muomala bobida, jumladan, hadya berish, erkalash, lutf va mehribonlikda adolat qilib, barchalariga bir xil munosabatda bo'lishi shart. Mabodo farzandlaridan birortasini ayricha sevsam ham, buni boshqalariga ochiq-oydin sezdirish bilan, boshqalarining ko'nglini

cho'ktirmasligi lozim. Biror narsa olib kelsa, birinchi qizlariga, keyin o'g'illariga ulashsin. Chunki, qizlarning qalbi o'g'il bolalarga qaraganda nozik va ta'sirchan bo'ladi. Rasululloh s.a.v: «Kimki bozorga chiqib, faqat qizlarni deb niyat qilib, biror narsa sotib olsa Alloh taolo unga nazar qiladi, kimgakim Alloh taolo nazar qilsa, uni hech ham azob qilmaydi» deganlar. Yana bir hadisda esa: «Kim qiz bolalarni xursand qilsa, Allohdan qo'rqib yig'lagandek bo'ladi va kimki Alloh taolodan qo'rqib yig'lasa, Alloh taolo uning badanini do'zax o'tiga harom qiladi», deb marhamat qilganlar (Shohmurodzoda M., Karomatulloh F., 2018:78).

Shu o'rinda aytish joizki, jamiyatda xotin-qizlar va bolalarga qarshi qaratilgan zo'ravonliklarga islom dini hamisha muhim nasihat va o'gitlarni berib keladi. Jumladan, Hadisi sharifda ta'kidlanganidek, «Sizlarning har biringiz oilangizga cho'pon kabisizlar. Har biringiz hamma farzandlaringizga va ayollaringizga javobgar bo'lasiz». Farzandning eng ulug' sifati bilimli bo'lishidir. «Riyoziy-nosihin» da keltirilishicha, «Bir kishida uch farzand bo'lsa, agar imkon topsa barchasini bilimli qilsin va agar imkon topsa ikkitasini bilimli qilsin va agar iloji bo'lmasa, albatta, birini ilm bilan mashg'ul qilsin va zaruratga qarab, ikkisiga diniy va dunyoviy ilmlarni, tijorat va dehqonchilikdek kasblarni o'rgatsin va (muflis), mufsid, badkorlar bilan sherik bo'lishga hech imkon bermasin», Ota-ona mehr-shafqat yuzasidan farzandlarini o'psinlar. Bu haqida Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: «Farzandlarni ko'p o'pinglar, albatta, sizlar uchun har bir o'pganda jannatda bir daraja bor», deb marhamat qilganlar»(Shohmurodzoda M., Karomatulloh F., 2018:81).

Bilamizki, Oilaviy nizolarni bartaraf etishning eng maqbul yechimi bu – ziddiyatlarni oldini olish va uni vujudga kelishiga zamin yaratmaslikdir. Chunki, oilalarda zo'ravonliklarning tez-tez sodir etilishi, shu oilalarda o'sgan farzandlar tarbiyasining zalolatga yetaklaydi. Shunday ekan, oilada sog'lom va barqaror muhitni shakllantirish hamda nikoh rishtasining mohiyatini oila qurayotgan har ikki tarafga ham birdek to'g'ri tushuntirish, xotin-qizlar va bolalarning ijtimoiy mavqeini qo'llab-quvvatlashda muhimdir. Ayniqsa, milliy va diniy qadriyatlarimizda oilaga, nikohga, xususan, ayollar va bolalarga munosabat haqidagi ibratli xulosalarni keng tahlil etish va keng ommaga taqdim etish masalaga beriladigan eng muhim yechimlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bu borada Qur'on oyatlari va hadisi shariflarni o'rganish

va nasihatlariga quloq tutish eng afzalidir. Ayniqsa, oilani yod g'oyalardan himoya qilishda bu muhim omil hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shu aytish mumkinki, oila bu – mustahkam qo'rg'ondir. Uning ma'naviy muhitini asrab-avaylashda milliy va diniy qadriyatlarimizni o'rni beqiyosdir. Ushbu maqolada ham aynan shu masalalarga e'tibor qaratildi. Islom dini ezgulikni va inson kamolini asosiy qadriyat sifatida e'tirof etib, uning mohiyati ham Allohga bo'lgan bandalikni bajo keltirishdir. Inson hamisha o'zining ijobiy xislatlarini rivojlantirishda – asosiy mezon qilib ishonch va e'tiqodni oladi. Chunki, e'tiqod bu – yaratganga ishonish va uning taqdiridan rozi bo'lishdir. Oilalarda ham farzand kamolga yetar ekan, uning har tomonlama hayot sinovlariga bardoshli bo'la olishi uchun – ota-ona uning ma'naviy dunyoqarashini to'g'ri shakllantirishi lozim. Chunki, farzand bu – yosh nihol kabitdir, uni qanday o'stirib, tarbiyalasak, kelajakda u jamiyatda shunday shaxs bo'lib kamol topadi. Shuningdek, xotin-qizlar uchun ham oilada yaxshi muhit yaratish va ularni ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash – kelgusi avlodning ham salohiyatini qanday bo'lishiga chambarchas bog'liqdir. Bugungi kundagi asr vabosiga aylanib borayotgan zo'ravonliklar va oilaviy kelishmovchiliklarni vaqtida bartaraf etib, uning zalolati haqida yosh avlodga tushuntirilsa – bu jamiyatning ma'naviy jihatdan rivojlanishiga va asrlar davomida shakllanib, qadr topib kelgan qadriyatlarimizni bekami-ko'st kelgusi avlodga yetkazishga o'zimizning ulkan hissamiz bo'ladi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulaziz Mansur. (2018). Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi. Toshkent: Toshkent islom universiteti.
2. Hikmatullayev H., Mansur A. (1990). Axloq-odobga oid hadis namunalari. Toshkent: Fan.
3. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2016). Baxtiyor oila. Toshkent: Hilol-Nashr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. (2017). «Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabai» mavzusidagi anjumandagi nutqi: Toshkent: Xalq so'zi.
5. Akramova F. va b. (2019). Oila ensiklopediyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

6. Yusupova N. va b. (2022). Islomda gender tenglikning o'ziga xos tamoyillari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Baktria press.
7. Shohmurodzoda M., Karomatulloh F. (2018). Islomda nikoh va oila. Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti.
8. Пашенко А. (2005). Понятие домашнего насилия Теория и практика общественного развития. №1.
9. <https://lex.uz/docs/-6445145>
10. Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish bo'yicha qo'mita, umumiy mazmundagi 19 tavsiya, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik [1992, 11-sessiya], Inson huquqlari bo'yicha kelishuv organining umumiy izoh va tavsiyalar to'plami, BMT hujjatlari HRI/GEN/1/Rev.1 at 84 [1994].
4. President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev. (2017). Speech at the conference on "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi": Tashkent: Khalq so'zi.
5. F.Akramova and others. (2019). Oila ensiklopediyasi. Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan.
6. N.Yusupova and others. (2022). Islomda gender tenglikning o'ziga xos tamoyillari. Study guide. Tashkent: Bactria press.
7. M.Shokhmurodzoda, F. Karomatullah. (2018). Islomda nikoh va oila. Samarkand: Imam Bukhari International Center Publishing House.
8. Pashenko. (2005). Ponyatie domashnego nasiliya Teoriya i praktika obshchestvennogo razvitiya. #1.
9. <https://lex.uz/docs/-6445145>.
10. Committee on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women, 19 General Recommendations, Violence Against Women [1992, 11th Session], General Comments and Recommendations of the Convention on Human Rights, UN Docs HRI/GEN/1/Rev.1 at 84 [1994].

REFERENCES

